

*Xudayberganova Dilafruz Usmonovna*  
*NDPI akademik litsey o'qituvchisi*

## XALQ MAQOLLARINI TIL TA'LIMIDA QO'LLASH USULLARI

Har bir millatning til boyligi, urf-odati, madaniyatini kelgusi avlodlarga va uzoq asrlarga shu millatning o'z vakillari yetkazadi. Inson shaxsini xar tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini singdirish milliy tilga, o'z xalqining an'alariga iftixor tuyg'usini tarkib toptirishda ona tilining o'rni beqiyosdir.

Ona tili darslarida qo'llangan ilg'or pedagogik texnologiya o'quvchi –yoshlarda o'z ona tiliga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish, ularning tom ma'noda savodxon bo'lishiga erishish; to'g'ri, aniq, mantiqli nutq sohibi qilib tarbiyalash; mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, yozma nutqini rivojlantirish, nutq vaziyatga qarab fikrini to'g'ri ifodalay olish malakalarini tarkib toptirish kabi vazifalarni bajarishi lozim. Jumladan, ta'lim boshqa tilda olib boriladigan sinflarda o'zbek tili (davlat tili)ni ikkinchi ona tili sifatida o'rganishda ham yuqoridagi masalalarga jiddiy yondashishni talab etadi.

Darhaqiqat, bugungi kun ta'limida o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ya'ni ta'lim oluvchilarni nafaqat tili, o'rganilayotgan millat madaniyati bilan tanishtirish, balki kundalik xayoti, urf-odatlaridan ham boxabar qilib borish zarur. Bu kompetensiyani egallash o'zi yashayotgan va tili o'rganilayotgan millat hayotidagi o'xshash va farqli tomonlarni tushunishni ta'minlaydi. Bunga erishish uchun, birinchi navbatda, o'quvchilarda motivatsiya, ya'ni o'zbek tilini o'rganish zarurati, imkoniyati va qulayliklari haqidagi tushunchani shakllantirish o'qituvchi zimmasidagi asosiy vazifalardan biri sanaladi. Bu asnoda til ta'limini xalq og'zaki ijodi bilan uyg'unlikda olib borish maqsadga muvofiqdir.

Darhaqiqat, biz bilingvizm sharoitida yashayotgan xalq bo'lganligimiz sababli bu o'quvchilarda deyarli qiyinchilik tug'dirmaydi, albatta. Chunki ma'lum ma'noda urf-odatlarimizda, tilimizda, qadriyatlarimizda ancha o'xshashliklar mavjud. Jumladan, xalq og'zaki ijodimizda ham. Aslida o'zbek tili darslariga qo'yiladigan didaktik vazifalar ham o'quvchining nutqiy malakasini oshirish va o'rganayotgan tilga, millatga nisbatan mehrini uyg'otishdir. Dars mobaynida xalq maqollaridan, dostonlaridan, ertak va rivoyatlaridan keng foydalanishimiz mumkin.

Darvoqe, biz o'zbek tilini o'rgatishda faqatgina nutqiy mavzular bilangina cheklanib qolmasdan grammatik mavzular bilan ham tanishtirib boramiz. Misol tariqasida ma'lum bir grammatik mavzuni nazariy jihatdan o'rganish jarayonida «Karima o'qishga bordi», «Salima maktabdan keldi» kabi oddiygina misollar bilan cheklanib qolmasdan, balki o'zbek xalq maqollaridan foydalanish mumkin. Deylik, ot so'z turkumini o'rganish mobaynida o'zbek xalqining bolajon xalq ekanligini aks ettiruvchi quyidagi xalq maqollaridan foydalanishi mumkin: 1. Ona bilan bola Gul bilan lola. 2. Bola aziz, odobi undan aziz. 3. Onaning ko'ngli bolada Bolaning ko'ngli dalada.

Maqol qadim-qadimdan xalq donishmandligi, aql-zakovatining ifodasi va namunasi sifatida yuzaga kelgan. Maqollarni «Hayot yo'lining buyuk qomusi» ham deyish mumkin. Ular kishilarning aql-zakovatini charxlaydi, nutq jarayonida chiroyli gapirishga undaydi, fikrni ta'sirchan qiladi, hayotda to'g'ri yo'lni tanlay olishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to'g'ri yechishga o'rgatadi, turmushning jamiki katta-kichik masalalari xususida qimmatli maslahatlar beradi. Til ta'limida xalq maqollari katta rol o'ynaydi. Jumladan, har bir maqolda millatning xarakterini, insoniylik fazilatlariga undovchi ibratomuz nasihatni anglaymiz. Bundan tashqari xalqimizning mehnatsevarligi yaqqol tasvirlangan maqollar orqali ham millatimiz muhitini shakllantirib bera olishimiz mumkin. Masalan: 1.Mehnat tagi rohat. 2. Mehnat qilsang yasharasan, Katta-katta osharsan. 3. Yuk ko'targan – yuzaga chiqar. 4. Daryo suvini bahor toshirar, Odam qadrini mehnat oshirar. 5. Ot surinmay yo'l topmas, Yigit urinmay mol topmas.6. Qimirlagan – qir oshar va hokazo.

Bundan tashqari harflar ketma-ketligini yod olish qobiliyatini kuchaytirish uchun ham xalq maqollaridan foydalanish mumkin. Masalan:

A- Avval o‘yla keyin so‘yla

B- Bilim baxt keltirar.

.....

Sifat so‘z turkumini o‘rganish asnosida ham xalq maqollariga murojaat qilish mumkin. Bunda aqliy zehni charxlash uchun savolni she‘riy tarzda ifodalasangiz bo‘ladi:

- Shirin so‘z aytilsa, bemor bo‘lar sog‘,  
O‘rinsiz so‘z bilan ko‘ngil bo‘lar dog‘.  
Subhidam har qancha xushhol sayrasa  
Xushhavozi bulbuldek bo‘lolmaydi zog‘.

Matnda qaysi so‘zlar

Toping qanday sifatlar?

- Kamtarinlik, kamtarin bola  
El qalbidan nomi joy olar.  
Boshing ko‘kka etgan bo‘lsa ham,  
Kamtarin bo‘l, el-yurt ardoqlar.  
Bunda ikki «kamtar» so‘zi bor  
Bir-biridan qanday farqi bor?

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham maqollar badiiy jihatdan ham mukammaldir. Bu maqollarning asosiy fazilatlaridan sanaladi. Jumladan, o‘xshatish, tovushdoshlik, sifatlash, istiora, majoz kabi badiiy san‘atlar keng qo‘llanilgani bilan ular o‘quvchi diqqatini o‘ziga jalb qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Йўлдошев Қ. Янгича педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. д.ри ... дисс. – Т., 1996. –Б.306.
2. То‘хлиев В. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Т.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2012. –В.144.
3. Зуннунов А. ва бошқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1992. –Б.333.
4. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш., Маънолар махзани, Т., 2001. 45-б.